

## **BOSHLANG‘ICH SINFDA PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ALOHIDA SHUG‘ULLANISH**

**Jumaniyozova Shahzoda Xushnud qizi**

Urganch RANCH university Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi  
[shahzodajumaniyozova723@gmail.com](mailto:shahzodajumaniyozova723@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinfdagi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanishga bag‘ishlanadi. Unda o‘quvchilarning bilimidagi boshliqlarni aniqlash, ularning individual, psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘limni tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, individual yondashuv, qo‘shimcha mashg‘ulotlar hamda rag‘batlantirish usullari, o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi alohida ta‘kidlangan.

**Kalit sozlar:** boshlang‘ich ta‘lim, psixologik, pedagogik, ijtimoiy, individual, guruhli ishlar.

## **ИНДИВИДУАЛЬНАЯ РАБОТА С СЛАБОУСПЕВАЮЩИМИ УЧАЩИМИСЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

**Аннотация:** В данной статье рассматривается организация индивидуальной работы с учащимися начальных классов, имеющими низкую успеваемость. В ней рассматриваются вопросы выявления пробелов в знаниях учащихся и организации образовательного процесса с учётом их индивидуальных, психологических и педагогических особенностей. Также особо подчёркивается значение индивидуального подхода, дополнительных занятий и методов поощрения, а также сотрудничество учителя и родителей в

**Ключевые слова:** начальное образование, психологический, педагогический, социальный, индивидуальный, групповая работа.

## **INDIVIDUAL WORK WITH LOW-ACHIEVING STUDENTS IN PRIMARY SCHOOL**

**Annotation:** This article is dedicated to working with low-achieving students in primary school. It examines the identification of gaps in students' knowledge and the organization of the teaching process while considering their individual, psychological, and pedagogical characteristics. In addition, the article highlights the importance of an individual approach, additional lessons, motivational methods, and cooperation.

**Keywords:** primary education, psychological, pedagogical, social, individual, group work.

**KIRISH.** Boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatining poydevori hisoblanadi. Shu davrda o'quvchilar o'qish, yozish, hisoblash, tafakkur qilish, tinglab tushinish kabi asosiy ko'nikmlar shakllanadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonunda ham boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ammo har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi bir xil emas. Ayrim o'quvchilar aytilayotgan ma'lumotlarni tez qabul qiladi yana, ayrimlari esa turli sabablarga ko'ra dars jarayonidan orqada qolishadi. Bunday o'quvchilar bilan alohida ishlash boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir. Sinfda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar – bu o'quv dasturida belgilangan bilim , ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilardir.

O'quvchilar darslarni past o'zlashtirish sabablari:

**1. Psixologik sabablar** – bolaning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi pastligi, diqqatining tarqoqligi, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik. Shu kabi kichik muammolar ham bolaning o'qishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi.

**2. Ijtimoiy sabablar** – oilaviy muammolar, ota-onaning e'tiborsizligi, uy sharoitining yomonligi. Uydagi bolayotgan muammolar ham bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi mumkin. Bolaning bilim olishi, uning xulq atvori, shuningdek, gigiyenik va sog'lom turmush tarzi kabi asosiy masalalar ota-onaning zimmasida. Uy sharoitining yomonligi ya'ni oddiygina dars tayyorlash uchun stol-stullar yetishmasligi, shaxsiy o'quv qurollarining yetishmasligi kabi kichik sabab bo'lishi mumkin.

**3. Pedagogik sabablar** – o'qituvchi tomonidan individual yondashmasligi, dars metodikasining bir xil bo'lishi o'quvchi darsga yangi bilim va yangi narsalarni o'rganish uchun keladi. Agar har kuni dars bir xil oddiy an'anaviy usulda o'tilsa bola zerikadi va darsga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi. O'qituvchining e'tiborsizligi, darslarga sayoz yondashishi, o'quvchilarning hammasiga ham e'tibor bermasligi kabi omillar ham sabab bo'ladi. Darslarni qiziqarli va o'quvchilarni jonlantiruvchi vazifani o'qituvchi bajaradi. Uning e'tiborsizligi ayrim o'quvchilarni past o'zlashtirishiga yoki o'qishga bo'lgan qiziqishini yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

**4. Salomatlik bilan bog'liq sabablar** – tez charchash, eslab qolish qobiliyatining sustligi yoki eshitish va ko'rishdagi muammolar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi -bu nafaqat bilim beruvchi balki har bir o'quvchini kuzatuvchi tahlil qiluvchi va yotdamchi shaxsdir.

Sabablarga yechimlar:

- har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini muntazam tahlil qilib borishi. Bu degani o'qituvchi faqat dars o'tish bilan cheklanmay, balki har bir bolaning darsni qay darajada tushinayotganini, topshiriqlarni bajarishdagi muvaffaqiyatini, qaysi mavzularda qiynalayotganini doimiy ravishda kuzatib borishi kerak. Har oyda testlar, suhbatlar, kuzatishlar orqali bolaning o'sishini baholash. Ya'ni o'qituvchi har bir past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun alohida metodika ishlab chiqishi kerak.

- past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan individual reja asosida ishlash. O'qituvchi sinfida kimning o'qishda qiynalayotganini aniqlab, o'sha o'quvchi bilan alohida mashg'ulotlar olib borishi kerak. Ya'ni kimdadir yozish sust bo'lsa u bilan alohida, yana

kimdadir matematik hisob-kitob va o'qish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf qilishi lozim.

- ota-onalar bilan hamkorlikda bolaning rivojlanish yo'nalishini belgilash. Bu ota-onalar va o'qituvchi birgalikda ishlashini bildiradi. O'qituvchi bolaning maktabdagi holatini ota-onasiga tushuntiradi, ota-ona esa bolasining uydagi holatini o'qituvchiga aytadi va birgalikda bolaning past o'zlashtirishini oldini olishadi. Masalan, bola matematikadan qiynalayotgan bo'lsa ota-onasi u bilan amaliy mashqlarni uyda ko'proq bajarishini tavsiya beradi. Shu tarzda bola maktabda ham uyda ham qo'llab - quvvatlanadi.

Alohida shug'ullanishning samarali usullari.

**1. Individual darslar.** Bu usulda o'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot olib boradi. Bolaning qiyinchilik sezayotgan fan yoki mavzuni mustahkamlashda yordam beradi. Ya'ni tarqatma materiallari, ko'rgazmali vositalar, prezentatsiya kabi vositalardan foydalanilsa o'quvchining mavzuni tez va oson tushunishiga yordam beradi. Uyga vazifasini bajarishga undash. Agar bola uy ishi topshiriqlarini o'z vaqtida va o'zi mustaqil bajarsa o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi. Bola mavzuni mustahkamladi uni tushundi va keyingi darsga ham qiziqish paydo bo'ladi.

**2. Guruhli ishlar.** Bu usulda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va birgalikda topshiriqlar bajarishadi. Bu usul o'rganishda faol ishtirokni oshiradi, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni faol guruh a'zolari yordamida qo'llab- quvvatlanadi. Bu usul asosan hamkorlikda ya'ni guruh a'zolarining fikrini inobatga olgan holatda o'rganish, muloqot qilish va o'z fikrini bildirish olish kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Guruhli ishlarning afzalliklari asosan o'quvchilar bilmagan narsalarini bilib olish, hamjihatlik, hurmat, boshqalarning fikrini inobatga olish kabi fazilatlar shakllanadi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda guruhli ishlarni shakllantirish kelajakda bolalarning bilimi va tarbiyasini mustahkamlaydi.

**3. O'yin va qiziqarli metodlar asosida o'qitish.** O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, darsni zerikarli bo'lmasligini ta'minlaydi. O'yin va metodlar

bolalarning yoshiga qarab tanlanadi. Chunki bog'cha bolalariga xos bo'lgan o'yin va metodlar maktab bolalariga to'g'ri kelmaydi. Bu usuldan foydalanish dars muhitini ham o'zgartiradi va past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham oldinga intilishga undaydi. O'rganish jarayoni tabiiy va quynoq muhitda kechadi, bilim mustahkamroq bo'ladi. Masalan, matematik misollarni "kim tez yechadi" "so'z topish zanjiri" kabi oddiy o'yinlar orqali ham darsni qiziqarli qilish mumkin.

**4. Tarqatma va ko'rgazmali vositalardan foydalanish.** Bu vositalar o'quvchini tezroq o'rganishga va tushinishga yordam beradi. Chunki boshlang'ich sinfdan bolalarga ko'rsatish orqali ular ko'proq narsani tushunib eslab qolishadi.

**5. Rag'batlantirish.** Bu usulda o'qituvchi o'quvchining har qanday ijobiy harakatini inobatga olgan holatda rag'bat beradi. Bolaning o'ziga ishonchini oshiradi, va o'qishga ijobiy munosabatini shakllantiradi. Oddiy biror misol yoki masalani ishlaganda bolaga "Ajoyib ishlading" so'zi ishlatilsa unda o'ziga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. Ya'ni rag'bat o'quvchini oldinga intilishga undaydi.

**6. Qo'shimcha mashg'ulotlar.** Bu darsdan tashqari o'tkaziladigan qisqa, lekin mazmunli mashg'ulotlardir. Bu bilan bola darsda tushunmagan narsalarni tushunib oladi. Qo'shimcha shug'ullanish bilan bola o'z ustida ishlaydi, tushunmagan narsalarini tushunishga intiladi.

## **XULOSA.**

Boshlang'ich sinflarda bolalarning past o'zlashtirish sabablari asosiy ota-ona va o'qituvchining e'tiborsizligi bo'lishi mumkin. Agar bu bolalar bilan ishlanmasa, unga e'tibor berilmasa, bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi butunlay so'nadi. Bunday o'quvchilar bilan vaqtida shug'ullanilmasa bolaning savodsiz bo'lib qolishiga yo'l ochib berilgan bo'ladi. Bu bolalar bilan alohida shug'ullanish zarur, chunki ular alohida e'tibor va shug'ullanishni talab qiladigan o'quvchilardir. Bu bolalarning ota-onalari ham bolalariga e'tiborli va ular bilan ko'p shug'ullanishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

Boshlang'ich ta'lim metodikasi - T. Tojiboyeva, Sh. Jo'rayeva, M. Movlonova.

Pedagogika- A.Q. Mavlonova , M.Qodirova, T.Tursunova.

G'oziev.E Umumiy psixologiya - Toshkent 2020.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi.Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti- Toshkent 2020.

Yo'ldoshev.J, Hasanboyeva.O, Pedagogika - Toshkent: O'qituvchi.2018.